

UDK.632

**XILOKORUS (*CHILOCORUS*) ENTOMOFAGLARINING
AHAMIYATI**

Ro'ziqulov Davlatbek Nazaraliyevich,

katta o'qituvchi

Abdullayeva Iroda Farhod qizi, talaba

Abduvaliyev Nurbek Bayot o'g'li, talaba

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mevali bog'larni ko'paytirish jiddiy zarar keltiruvchi so'ruvchi zararkunandalardan shiralar, o'rgimchakkana va qalqondorlarning zarari hamda ularga qarshi kurashda entomofaglarning tur-tarkibi hamda qalqondorlarga qarshi xilokorus entomofagining ahamiyati haqida malumotlar keltirilgan. Mevali bog'lardan sifatli hosil dolzarb muommolardan biri bo'lib, so'ruvchi zararkunandalar jiddiy zarar yetkazishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: Bog', xilokoruslar, zararkunanda, entomofaglar, so'ruvchi, qalqondor.

KIRISH: Endilikda qishloq xo'jaligining barcha sohalarida islohotlar o'tkazilib mamlakatimizning oziq ovqat xavfsizligini ta'minlash yuzasidan bir qator ishlar olib borilmoqda.

Respublikamizda o'simliklarni uyg'unlashgan himoya qilish keng ko'lamda olib borilmoqda. Bu tizimning asosi ma'lum fitosanitar sharoitda ekinlarni zararli organizmlardan to'la himoya qilish va shu agroekosistemani mo'ta'dilligini ta'minlashdan iboratdir. Bu degani zararli organizmlarni tabiatda tubdan yo'q qilib yuborish emas, balki agrobiotsenozdagi zarasiz muvozanatini saqlashdan iboratdir. O'simliklarni uyg'unlashgan himoya

qilishning asosi biologik kurashda tayangan holda olib boriladi. Biologik usulning mohiyati qishloq xo'jaligi ekinlarining zararkunandalarga qarshi tirik organizmlarni yoki ularning xayotiy mahsulotlarini qo'llashdan iborat.

O'zbekistonda mevali bog'larni ko'paytirish uchun hamma imkoniyatlar mavjud, xususan tabiiy iqlim sharoitlari ham mevali daraxtlarni ekib o'stirishga qulaydir. Ammo ko'pchilik mevali daraxtlar bir yerda ko'p yil o'sishi tufayli zararkunandalar ko'payib, ildizdan tortib mevalargacha katta zarar yetkazadi.

Mevali daraxtlarga sezilarli darajada zarar keltiradigan so'ruvchi zararkunandalar orasida olma shirasi, o'rgimchakkana va qalqondorlar katta zarar yetkazadi. Bular o'ziga xos hasharotlar guruhiga mansub bo'lib, ular o'simliklarning sharbati bilan oziqlanadilar, ko'pincha qalqondorlar o'simlikning to'qimasida patologik o'zgarishlarga olib keladilar, natijada barglarning va mevalarning to'kilishiga sabab bo'ladi, ayrim novda va shoxlarni quritadi, hosilning miqdori kamayib, sifati buziladi.

Ba'zi hollarda butun o'simlikning qurishiga olib kelishi ham mumkin. Bundan tashqari qalqondorlar, shiralar va o'rgimchakkana so'rishi sabali o'simlik qobig'i va mevalarida qizil yoki to'q sariq rangli dog'lar paydo bo'ladi, bu esa meva mahsulotining mazasi va sifatini pasaytiradi, ular normal kattalikkacha rivojlanmaydi. Odatda Kaliforniya qalqondori shunday zarar keltiradi.

Ko'pchilik shira va qalqondorlar juda ham xo'ra hasharotlar bo'ladilar, ayniqsa yilning issiq davrida va havoning nisbiy namligi past bo'lganda xujayra shirasining organizmi xazm qilishidan ko'ra ko'proq so'rib oladi. Bu esa tarkibida shakar kup bo'lgan najosatning ajralishiga olib keladi. Yopishqoq va shirali tomchilar «asal shudring» deb nom olgan, ular barglar, mevalar va novdalarni qoplaydilar. Bu shirali chiqindilarda qora zamburug'lar paydo bo'ladi va barglarda fotosintezning bir me'yorda kechishiga xalaqit beradi, natijada mevali daraxtlarning tashqi ko'rinishi va fiziologiyasida salbiy jixatdan o'zgarishlar ro'y beradi.

Mevali daraxtlarning soʻruvchi zararkunandalari ichida olma biti, oʻrgimchakkana va qalqondorlar koʻproq ahamiyatga ega. Ular Oʻzbekistonning hamma yerlarida uchraydi va mevachilikka katta zarar yetkazadi.

Mevali bogʻlarda zararkunandalarni respublika hududlari boʻyicha tarqalish areali yoʻnalishli kuzatuvlar asosida oʻrganildi. Laboratoriya sharoitida zararkunandalar ustida fenologik kuzatuv olib borilib, ularning qanday sharoitda qishlashi, rivojlanishi uchun qulay havo harorati va nisbiy namlik, zararkunandalarning serpushtligi va qaysi oʻsimlikda yaxshi oziqlanib rivojlanishi oʻrganiladi. Mevali bogʻlardagi soʻruvchi zararkunandalarga qarshi quydagi entomofaglar samarali hisoblanadi.

Xilokoruslar — *Chilocorus*, Shiralar, kanalar, soxta qalqondorlarga qiron keltiradi. Agar daraxtda qalqondorlar koloniyasi uchrasa, aynan ana shu qalqondorlar koloniyasini xush koʻradi. Mavsum davomida xilokorus ikki marta avlod beradi. Qoʻngʻizlari bogʻlarda, toʻkilgan barglar orasida, poʻstloqlar orasida va boshqa himoyalangan joylarda qishlaydi. Bundan tashqari yetti nuqtali oltinkuz (*Chrysopa septempunctata* Wegrn), oddiy oltinkuz (*Chrysopa carnea* steph) va xonqizi qoʻngʻizlarining lichinkasi va imagosi soʻruvchi zararkunadalarining tuxumlari va lichinkalari bilan oziqlanib katta foyda keltiradi.



1-rasm -Xilokoruslar — *Chilocorus* entomofagining lichinkasi va imagosi

Xulosa. Mevali bog'larning asosiy so'ruvchi zararkunandalari hisoblangan olma biti, o'rgimchakkana va qalqondorlarni tarqalishiga qarshi uz voqtida qarshi kurashish va keltiriladigan zararni kamaytirish uchun ushbu zararkunandalar tarqalgan hududlarda shikastlangan har bir daraxtni hisobga olgan holda zararlanish darajasini nazorat etib turish va shular asosida erta baxordan to kech kuzga qadar tashkiliy – xo'jalik tadbirlarini shuningdek, zararkunandalarga qarshi agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va yuqori sifatli qilib o'tkazish, xususan daraxtzorlar qator oralariga ishlov berish, kuzgi yer haydovini sifatli qilib o'tkazish, yaxob suvlarini berish, meneral va maxalliy o'g'itlardan samarali foydalanish, ayniqsa zararlangan daraxtlarni qo'shimcha oziqlantirish, daraxtlar ostidagi begona o'tlar va o'simlik qoldiqlarini yo'qotish xam zarur tadbirlardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Яхонтов В.В. Экология насекомых. – Москва: Высшая школа, 1969. – 487
2. Мирзалиева Х.Р. Биологический метод борьбы с вредителями сельскохозяйственных культур. - Ташкент: Матбуот, 1986. - 54с.
3. Alimuxammedov S.N., Xo'jayev Sh.T. - "G'o'zani zararkunandalardan himoya qilish" Toshkent 1991 yil Mexnat
4. X.Холмурадов, Сохта қалқондорлар // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги – 1997 №6 Б.44-45
5. Arslonov M.T., Yusupov A.X., B.A.Sulaymonov. O'simliklarni biologik himoya qilish. - Toshkent: "Ilm ziyo", - 2003.
6. Sh.T. Xo'jayev, E.A.Xolmurodov. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari.Toshkent. – 2019.